

# Xizmatlar sohasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-sentyabr

## Raqamlar:


- 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi - 5021,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 122,4 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1583,1 ming.so'mni tashkil etdi.

Zamonaviy dunyoda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ko'rsatilayotgan bozor xizmatlari turlarining ro'yxati juda xima-xil bo'lib, bular savdo va transport xizmatlaridan tortib moliyaviy, sug'urta va turli xil vositachilik xizmatlaridan iborat.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida chora-tadbirlarning davom ettirilishi xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish imkonini bermoqda. Natijada, viloyatimizda 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 5021,3 mlrd. so'mni tashkil etdi .

Bozor xizmatlarining eng katta hajmi savdo xizmatlari, transport xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, shaxsiy va boshqa xizmatlarda kuzatilmoqda.


2018 yil yanvar- sentyabr oylarida xizmatlar tarkibi, % da



Xizmatlar tarkibida eng katta ulush - savdo xizmatlari (34,0 %), transport xizmatlari (22,9 %), moliyaviy xizmatlar (11,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,4 %), shaxsiy xizmatlar (3,8 %), kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (3,7 %) tashkil qildi.

Xizmatlar jamiyat hayotining muhim sohasi bo'lib, hayot darajasini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Bugungi kunda xizmat amaliyotida xizmat faoliyatini tashkillashtirishning o'ziga xos jihatlari va xususiyatlari belgilangan.


### Xizmatlar ishlab chiqarish hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm



Xizmatlar sohasida xizmat hajmining o'shishi bir qator omillarning ta'siri bilan izohlanadi, jumladan: bozorda yangi turdagi xizmatlarning paydo bo'lishi, masalan: kredit kartalari orqali to'lovlar, Internet savdo, yangi savdo markazlari, mehmonxonalarning tashkil etilishi, ta'lim xizmatlarini kengaytirish, dam olish sohasidagi tanlovning kengayishi shular jumlasidandir.

Ta'kidlash joizki, jismoniy va yuridik shaxslarning xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun xizmatlar sohasini hududlarda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishini ta'minlamasdan turib respublika iqtisodiyotining yirik tarmog'i sifatida xizmatlar sohasini jadal rivojlantirib bo'lmaydi.

## 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'y'cha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da



2018 yil yanvar-sentyabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (122,4 %), boshqa xizmatlar (114,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (115,2 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (136,1 %), ijara xizmatlari (114,3 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (109,6 %) kabi xizmatlarning o'sish sur'atlari yuqori sur'atlarda oshdi.


**2018 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha  
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyat	5021,3	107,2
Qarshi sh.	2186,0	110,4
Shahrisabz sh.	182,0	106,0
G'uzor	246,7	104,6
Dehqonobod	130,9	106,3
Qamashi	202,8	102,0
Qarshi	204,7	103,8
Koson	287,2	104,5
Kitob	240,0	105,3
Mirishkor	110,0	104,0
Muborak	173,3	103,5
Nishon	172,0	104,2
Kasbi	120,3	105,5
Chiroqchi	339,4	106,0
Shahrisabz	197,0	105,0
Yakkabog'	229,0	106,8

Hududlar o'rtasida eng katta hajm Qarshi shahri (2186,0 mlrd.so'm), Chiroqchi (339,4 mlrd.so'm), Koson (287,2 mlrd.so'm), Guzor (246,7 mlrd.so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Mirishkor (110,0 mlrd.so'm), Kasbi (120,3 mlrd.so'm), Dehqonobod (130,9 mlrd.so'm), tumanlarida kuzatilmoqda.


### 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida viloyat bo'yicha jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da



Hududlar bo'yicha xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Qarshi shahri (43,5 %), Chiroqchi (6,8 %), Koson (5,7 %), Guzor (4,9 %), Kitob (4,8 %) tumanlari egallaydi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1583,1 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 117,1 % ni tashkil etdi.

### 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qarshi shahrida 8126,2 ming so'm qayd etilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 121,6 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga xizmat ko'rsatishning eng past ko'rsatkichi Kasbi tumanida kuzatildi 635,1 ming so'm, o'sish sur'ati esa 113,6 % ni tashkil etdi.